MADANIY MEROS OBYEKTLARI NEGIZIDA MAHALLIY TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING BANDLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH

Ibodillayev Habibulla Abdullayevich
Qarshi davlat unuversiteti mustaqil izlanuvchisi
Ibodullayevxabibullo25@gmail.com
Science ID: MQD-07260063
https://orcid.ogr/0009-0008-5306-117X
https://doi.org/10.5281/zenodo.23920095

Annotatsiya. Mazkur tezisda madaniy meros obyektlari negizida mahalliy turizm xizmatlarini rivojlantirishning hududiy bandlikka ta'siri ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy meros obyektining iqtisodiy qiymati faqat tashrif buyuruvchilar soni yoki turistik daromad bilan emas, balki uning atrofida shakllanadigan mahalliy xizmatlar, yangi ish o'rinlari, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlari va aholining daromad manbalari diversifikatsiyasi orqali baholanishi asoslanadi. O'zbekistonda turizm tarmoqlarida bandlik ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilinib, madaniy xizmatlar, joylashtirish, umumiy ovqatlanish va turistik vositachilik xizmatlarining mehnat bozoridagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, madaniy meros obyektlari negizida mahalliy turizm xizmatlari rivojlanishining bevosita, bilvosita va induksiyalangan bandlik samaralarini baholash mezonlari taklif etiladi. Tadqiqot natijasida bandlik samaradorligini oshirish uchun xizmatlar diversifikatsiyasi, mahalliy tadbirkorlikni jalb etish, malakali kadrlar tayyorlash va turistik xarajatlarning hudud iqtisodiyotida qolishini ta'minlash muhimligi asoslangan.

Kalit so'zlar: madaniy meros, mahalliy turizm, turizm xizmatlari, bandlik, mehnat bozori, hududiy rivojlanish, xizmatlar sohasi, turistik talab.

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние развития местных туристических услуг на занятость населения на основе объектов культурного наследия. Обосновывается, что экономический эффект объекта культурного наследия следует оценивать не только по количеству посетителей и объему туристских доходов, но и по созданию новых рабочих мест, расширению возможностей самозанятости, развитию местных услуг и диверсификации источников доходов населения. Анализируется динамика занятости в туристских отраслях Узбекистана, а также раскрывается значение услуг размещения, общественного питания, культурных и туристско-посреднических услуг для рынка труда. Предложены критерии оценки прямого, косвенного и индуцированного воздействия развития местных туристических услуг на занятость. Обоснована необходимость диверсификации услуг, привлечения местного предпринимательства, подготовки квалифицированных кадров и обеспечения сохранения большей части туристских расходов в местной экономике.

Ключевые слова: культурное наследие, местный туризм, туристические услуги, занятость, рынок труда, региональное развитие, сфера услуг, туристический спрос.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Abstract. This thesis examines the impact of developing local tourism services based on cultural heritage sites on employment. It argues that the economic value of a cultural heritage site should be assessed not only through visitor numbers and tourism revenues, but also through the creation of new jobs, self-employment opportunities, diversification of household income sources and expansion of local services. The study analyzes employment dynamics in Uzbekistan's tourism industries and highlights the role of accommodation, food and beverage, cultural and tourism-related services in the labour market. Criteria for assessing the direct, indirect and induced employment effects of local tourism development are proposed. The study emphasizes service diversification, local entrepreneurship, skills development and increasing the share of tourism expenditure retained within the local economy as important conditions for strengthening employment effects.

Keywords: cultural heritage, local tourism, tourism services, employment, labour market, regional development, service sector, tourism demand.

Madaniy meros obyektlari hududning tarixiy va madaniy qiyofasini belgilash bilan birga, uning iqtisodiy faolligini rag'batlantiruvchi muhim resurslardan biri hisoblanadi. Bunday obyektlarning turistik muomalaga kiritilishi tashrif buyuruvchilar oqimini shakllantiradi va shu orqali joylashtirish, ovqatlanish, transport, ekskursiya, gidlik, savdo, hunarmandchilik hamda boshqa xizmatlarga talabni yuzaga keltiradi.

O'zbekiston madaniy meros salohiyati yuqori bo'lgan davlatlardan biridir. 2026-yil may holatiga ko'ra, mamlakatning moddiy madaniy meros obyektlari milliy ro'yxatiga 8437 ta obyekt kiritilgan. Ularning tarkibida arxeologiya, arxitektura, monumental san'at va diqqatga sazovor maskanlar mavjud. [1] Bu ko'lam madaniy meros obyektlaridan turizm va mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari kengligini ko'rsatadi.

Biroq obyektning mavjudligi avtomatik tarzda bandlikning o'sishini ta'minlamaydi. Buning uchun obyekt atrofida turist ehtiyojlarini qondiradigan xizmatlar tizimi shakllanishi va ushbu xizmatlarning mahalliy aholi bilan iqtisodiy jihatdan bog'lanishi talab etiladi. Shu jihatdan madaniy meros obyektlari negizida mahalliy turizm xizmatlarini rivojlantirishning bandlikka real ta'sirini aniqlash muhim ilmiy-amaliy masaladir.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik kuzatish, dinamik qatorlarni tahlil qilish va iqtisodiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bandlikka ta'sirni baholashda turizm faoliyatining uch xil samarasi — **bevosita, bilvosita va induksiyalangan bandlik** tushunchalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Bevosita bandlik madaniy meros obyekti yoki unga to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatuvchi subyektlarda yaratiladigan ish o'rinlarini anglatadi. Bunga gidlar, muzey xodimlari, ekskursovodlar, kassirlar, joylashtirish va ovqatlanish xizmatlari xodimlari kiradi.

Bilvosita bandlik esa turistik xizmatlarni ta'minlovchi boshqa iqtisodiy faoliyat tarmoqlarida yuzaga keladi. Masalan, mahalliy oziq-ovqat yetkazib beruvchilar, hunarmandlar, transport xizmatlari, poligrafiya, savdo va texnik xizmat ko'rsatish subyektlari turizm talabining ortishidan manfaatdor bo'ladi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Induksiyalangan bandlik esa turizm sohasida daromad olgan xodimlarning ushbu daromadlarni mahalliy tovar va xizmatlarga sarflashi natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha iqtisodiy faollik bilan bog'liq.

Shu sababli madaniy meros obyektining bandlik samarasi faqat "obyektda nechta kishi ishlaydi?" degan savol orqali emas, balki "obyekt atrofidagi turistik xarajatlar mahalliy mehnat bozorida qancha qo'shimcha iqtisodiy faollik yaratmoqda?" degan savol asosida baholanishi lozim.

Madaniy meros obyektining turistik jozibadorligi oshgani sari tashrif buyuruvchilarning hududda qolish muddati va xarajatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar turist faqat obyektni ko'rib, hududni tark etsa, uning mahalliy iqtisodiyotga ta'siri nisbatan cheklangan bo'ladi. Aksincha, tashrif buyuruvchi hududda ovqatlansa, mahalliy mehmon uyida tunasa, hunarmandchilik mahsulotlarini xarid qilsa yoki mahalliy gid xizmatidan foydalansa, turizm xarajatlarining kattaroq qismi hudud iqtisodiyotida qoladi.

O'zbekistonda turizm tarmoqlarida yuridik shaxslar tarkibida band bo'lganlar soni 2019-yildagi 231,4 ming kishidan 2024-yilda 249,8 ming kishiga yetgan. 2020-yilda pandemiya ta'sirida ushbu ko'rsatkich 190,8 ming kishigacha pasaygan bo'lsa, keyingi yillarda bosqichma-bosqich tiklanish kuzatilgan. [2]

Mazkur dinamika turizmning mehnat bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy faoliyat ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bandlikning tarkibiy tuzilishi ham muhimdir.

2024-yilda tashrif buyuruvchilarni joylashtirish xizmatlarida 69 016 kishi, umumiy ovqatlanish xizmatlarida 93 721 kishi, turizm agentliklari va bron qilish xizmatlarida 9 931 kishi hamda madaniy xizmatlarda 17 845 kishi band bo'lgan. [3]

Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, turistik tashrifning o'zi alohida bitta xizmat turiga emas, balki o'zaro bog'liq xizmatlar majmuasiga talab yaratadi. Demak, madaniy meros obyektlari asosida turizmni rivojlantirishda bandlik samarasi ham kompleks ko'rsatkich sifatida baholanishi kerak.

Madaniy meros obyektlari negizida mahalliy turizm xizmatlarini rivojlantirish samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimini taklif etish mumkin:

№	Baholash ko'rsatkichi	Mazmuni
1	Yangi ish o'rinlari	Turizm xizmatlari kengayishi natijasida yaratilgan ish o'rinlari
2	Mahalliy bandlik ulushi	Turistik xizmatlarda mahalliy aholining ishtiroki
3	O'zini o'zi band qilish	Turizm bilan bog'liq mustaqil daromad faoliyatlari
4	Xizmatlar diversifikatsiyasi	Hududda mavjud turistik xizmatlarning turi va ko'lami
5	Turistning o'rtacha xarajati	Bir tashrif buyuruvchining hududda sarflagan mablag'i
6	Mahalliy iqtisodiyotda qoluvchi daromad	Turistik xarajatlarning hududda qoladigan qismi
7	Mavsumiy bandlik koeffitsiyenti	Yil davomida bandlikning barqarorligi
8	Mehnat unumdorligi	Bir band xodim hisobiga yaratilayotgan xizmat yoki daromad

Mazkur ko'rsatkichlar ichida ayniqsa **mahalliy iqtisodiyotda qoluvchi turistik daromad ulushi** muhim hisoblanadi. Chunki turist tomonidan sarflangan mablag'ning katta qismi tashqi kompaniyalar

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yoki import qilinadigan mahsulotlarga yo‘naltirilsa, tashriflar sonining ortishi mahalliy bandlikka kutilgan darajada ta’sir qilmasligi mumkin.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekiston turizm tarmoqlarida jami 249 764 nafar kishi yuridik shaxslar tarkibida band bo‘lgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 34 085 nafarga ko‘p bo‘lib, taxminan 15,8 foizlik o‘sishni anglatadi. [2]

Turizm xizmatlarining iqtisodiy salmog‘i ham oshib bormoqda. Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2019-yildagi 8,0 foizdan 2024-yilda 9,2 foizgacha ko‘tarilgan. [4]

Bundan tashqari, 2024-yilda turizm sohasida bevosita yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat 37 248,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. [5] Bu ko‘rsatkich turizmning nafaqat xizmatlar sektori, balki milliy iqtisodiyotning qiymat yaratish jarayonidagi ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi.

Turizm xizmatlariga talabning o‘sishi ham mahalliy bandlik uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, turistik kompaniya va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilgan shaxslar soni 2023-yildagi 1,157 million nafardan 2024-yilda 1,973 million nafargacha oshgan. 2025-yilda esa ushbu ko‘rsatkich 1,982 million nafarga yetgan. [6]

Shu bilan birga, 2026-yil 1-iyul holatiga O‘zbekistonda turistik operatorlar, turagentlar va boshqa turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi xo‘jalik subyektlari soni 3455 taga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 24,3 foizga oshgan. [7] Turistik biznes subyektlari sonining ko‘payishi hududlarda xizmatlar bozorining kengayishi va yangi bandlik imkoniyatlari shakllanishi uchun institutsional asos yaratadi.

Madaniy meros obyektlaridan turizm maqsadida foydalanishning bandlik samarasi obyektning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Arxeologik yodgorliklar, tarixiy shahar markazlari, me’moriy inshootlar, muzeylar va memorial obyektlarning har biri turli xizmatlar kombinatsiyasini talab qiladi.

Masalan, tarixiy shahar markazida gidlik va ekskursiya xizmatlari bilan bir qatorda milliy hunarmandchilik, gastronomiya, mehmon uylari va transport xizmatlari rivojlanishi mumkin. Arxeologik obyektlarda esa ilmiy-ekskursiya xizmatlari, muzeylashtirish, axborot xizmatlari va maxsus turistik marshrutlar muhimroq bo‘ladi.

O‘zbekistonda madaniy meros obyektlaridan tadbirkorlik maqsadida foydalanishning amaliy mexanizmlari ham kengaymoqda. 2025-yilda 305 ta madaniy meros obyekti 1243 ta tadbirkorlik subyektiga ijaraga berilib, 22,6 mlrd so‘m tushum ta’minlangan. [8]

Bu holat madaniy meros obyektlaridan foydalanish faqat davlat budjeti xarajatlari bilan cheklanmasdan, xususiy sektor ishtirokini ham shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Biroq ijara yoki investitsiyaning o‘zi bandlik samaradorligini anglatmaydi. Uning natijasi yaratilgan ish o‘rinlari, mahalliy xodimlar ulushi, xizmatlar hajmi va hududiy daromadlar orqali alohida baholanishi kerak.

Bandlik samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari

Birinchi yo‘nalish - mahalliy xizmatlarning ko‘lamini kengaytirish**.** Madaniy meros obyektiga tashrif buyuruvchi uchun faqat ekskursiya xizmatining mavjudligi yetarli emas. Uning ovqatlanishi, dam olishi, xarid qilishi va hudud haqida qo‘shimcha ma’lumot olishi uchun xizmatlar majmuasi shakllantirilishi lozim.

Ikkinchi yo‘nalish - mahalliy mehnat resurslarining turizmga moslashuvchanligini oshirish**.** Gidlik, xorijiy tillar, mehmonlarga xizmat ko‘rsatish, gastronomiya, raqamli marketing va hunarmandchilik bo‘yicha qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik kurslari mahalliy aholining turizm mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekistonning “Turizm to‘g‘risida”gi Qonunida ham turizm sohasida

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalari davlat tomonidan tartibga solinadigan yo'nalish sifatida belgilangan. [9]

Uchinchi yo'nalish - turistik xarajatlarning mahalliy iqtisodiyotda qolish darajasini oshirish**.** Buning uchun mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari, mahalliy transport va oilaviy mehmon uylari turistik xizmatlar tizimiga faolroq integratsiya qilinishi kerak.

To'rtinchi yo'nalish - mavsumiy bandlikni kamaytirish. Turistik tashriflarning mavsumiyligi ayrim hududlarda daromadlarning notekis taqsimlanishiga olib keladi. Shu sababli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, hunarmandchilik mahorat darslari, gastronomik dasturlar, ko'rgazmalar va mavsumdan tashqari ekskursiya dasturlarini rivojlantirish bandlikning yil davomida saqlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchi yo'nalish - raqamli xizmatlar orqali yangi bandlik shakllarini yaratish**.** 2025-yilda O'zbekistonda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyekti yagona elektron bazaga kiritilgani, 120 dan ortiq tarixiy obyektning 3D modeli va qariyb 100 ta 360 darajali virtual tur yaratilgani qayd etilgan. [10] Ushbu jarayon kontent yaratish, raqamli gidlik, virtual ekskursiya, SMM va turistik platformalarni boshqarish kabi yangi kasbiy faoliyatlar uchun imkoniyat yaratadi.

Ilmiy-amaliy taklif

Tadqiqot natijasida madaniy meros obyektlarining bandlikka ta'sirini baholash uchun "Mahalliy turizm bandlik samaradorligi indeksi"ni shakllantirish taklif etiladi.

U quyidagi komponentlardan tarkib topishi mumkin:

MBI = 0,30B + 0,20M + 0,20D + 0,15X + 0,15S

Bu yerda:

- **B** — yangi yaratilgan bandlik ko'rsatkichi;
- **M** — mahalliy aholining bandlikdagi ulushi;
- **D** — turistik daromadning hududda qolish darajasi;
- **X** — turistik xizmatlar xilma-xilligi;
- **S** — bandlikning mavsumiy barqarorligi.

Mazkur indeksning amaliy ahamiyati shundaki, madaniy meros obyektining turistik samaradorligini faqat tashrif buyuruvchilar soni bilan emas, hudud aholisi uchun yaratilgan iqtisodiy imkoniyatlar bilan ham baholash imkonini beradi.

Masalan, tashrif buyuruvchilar soni yuqori bo'lgan, biroq mahalliy aholining turistik xizmatlardagi ishtiroki past hududda indeks qiymati yuqori bo'lmasligi mumkin. Aksincha, tashriflar soni nisbatan kam bo'lsa-da, mahalliy tadbirkorlik va bandlik yuqori bo'lgan hududda turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi yuqoriroq baholanishi mumkin.

Bu yondashuv madaniy meros obyektlaridan foydalanish samaradorligini "ko'p turist - yuqori samara" degan oddiy mezondan chiqarib, "turistik faollik - mahalliy iqtisodiy manfaat - bandlik" munosabati asosida baholash imkonini beradi.

Madaniy meros obyektlari negizida mahalliy turizm xizmatlarini rivojlantirish hududiy bandlikni oshirishning muhim omillaridan biridir. Biroq uning samarasi madaniy meros obyektining o'zi bilan emas, balki obyekt atrofida shakllangan xizmatlar tizimining mahalliy iqtisodiyot bilan qay darajada bog'langanligi bilan belgilanadi.

O'zbekistonda turizm tarmoqlarida bandlikning 2024-yilda 249,8 ming kishiga yetishi, turizm tarmoqlarining YAIMdagi yalpi qo'shilgan qiymati ulushining 9,2 foizga chiqishi va turistik xizmatlardan foydalanuvchilar sonining keskin oshishi turizmning mehnat bozori uchun ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi. [2; 4; 6]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shu bilan birga, madaniy meros obyektlaridan turistik maqsadlarda foydalanish jarayonida asosiy e'tibor faqat tashrif buyuruvchilar sonini oshirishga emas, balki mahalliy aholining turistik qiymat zanjiridagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilishi lozim.

Tadqiqotda taklif etilgan Mahalliy turizm bandlik samaradorligi indeksi madaniy meros obyektlarining hududiy mehnat bozoriga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv asosida yangi ish o'rinlari, mahalliy bandlik ulushi, turistik daromadlarning hududda qolishi, xizmatlar diversifikatsiyasi va mavsumiy barqarorlik birgalikda baholanadi.

Shunday qilib, madaniy meros obyektining iqtisodiy samaradorligini baholashda uning tarixiy-madaniy qiymatini saqlash bilan bir qatorda, mahalliy aholi uchun yaratilayotgan barqaror iqtisodiy imkoniyatlar asosiy mezonlardan biri bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi**.** Madaniy meros milliy ro'yxatiga kiritilgan obyektlar soni 67 taga oshdi. 14.05.2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm tarmoqlaridagi bandlik (yuridik shaxslardagi ishlovchilar soni) — jami. SIAT, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm tarmoqlaridagi bandlik (yuridik shaxslardagi ishlovchilar soni). SIAT, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning mamlakat YAIMdagi ulushi. SIAT, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizmda bevosita yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat. SIAT, 2024.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turistik kompaniya va tashkilotlar tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni. SIAT, 2025.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonda turoperatorlar soni 3,4 mingdan oshdi. 12.08.2026.
8. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. 2025-yil yakunlari va joriy yilgi rejalar yuzasidan matbuot anjumani. 30.03.2026.
9. O'zbekiston Respublikasi. "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonun. 18.07.2019.
10. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. 2025-yilda AKT va raqamlashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar**.** 05.03.2026.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.